

«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
YAGONA AKSIYADORINING
QARORIDAN KO'CHIRMA

2024 yil «10» dekabr

№ 12/2

Toshkent sh.

**Qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori asosida aksiyalarning
chiqarilishi amalga oshmagan deb topish to'g'risida**

...

...

...

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 58 va 59-moddalariga asosan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori asosida aksiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan deb topish Yagona aksiyador vakolatidagi masalalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009 yil), Bank Ustavi va "Yagona aksiyadori to'g'risidagi nizom" talablaridan kelib chiqib, Yagona aksiyador

qaror qiladi:

1. "Smartbank" AJ Yagona aksiyadorning 2024 yil 15 oktabrdagi 10/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Smartbank" aksiyadorlik jamiyatining qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori (31.10.2024 yil, ro'yxat raqami P0967-4) asosida chiqarilgan aksiyalarning 06.12.2024 yil holatiga 0 donasi joylashtirilgani (yoki umuman joylashtirilmaganligi) sababli chiqarilishi amalga oshmagan deb topilsin.

2. Ushbu qarorning ijrosi yuzasidan nazorat "Smartbank" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin

Yagona aksiyador nomidan,

"Leader Finance" MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

Ko'chirma asligi to'g'ri:



T.Nurmuratov